

TALABA YOSHLARNI DUNYOQARASHINI OSHIRISHDA TA'LIMDA MADANIY ME'ROSIMIZNING AHAMIYATI

Elmurotov Jamshid

Turobov Yorqinjon

Renessans ta'lim universiteti

Ijtimoiy-siyosiy fanlar kafedrası o'qituvchilari

ANNOTATSIYA

Talaba yoshlarni dunyoqarashini oshirishda ta'limda madaniy me'rosimizning ahamiyati maqolamizda bugungi kunda yoshlarimizning sifatli ta'lim olishida ma'naviy me'rosimizdan foydalanishda ta'limning ahamiyatini madaniy me'rosimiz va ma'naviy me'rosdan foydalanish, talaba yoshlar ijodiy salohiyatini yanada oshirish borasida olib borilayotgan tizimli ishlar mazmun va mohiyatiga atroflicha to'xtalib, ilmiy falsafiy fikr mulohaza yuritimiz.

Kalit so'zlar: yoshlar, ta'lim, tarbiya, madaniyat, qadriyat, internet.

АННОТАЦИЯ

В нашей статье рассматривается значение нашего культурного наследия в образовании в улучшении мировоззрения студентов и молодежи, значение образования в использовании нашего духовного наследия в качественном образовании нашей молодежи сегодня, значение образования в использовании нашего культурного наследия и духовного наследия, а также проводимой систематической работы по дальнейшему повышению творческого потенциала студентов и молодежи. Давайте остановимся и поразмышляем над научной и философской мыслью.

Ключевые слова: молодежь, образование, воспитание, культура, ценности, интернет.

ABSTRACT

In our article, the importance of our cultural heritage in education in improving the outlook of students and youth, the importance of education in the use of our spiritual heritage in the quality education of our youth, the importance of education in the use of our cultural heritage and spiritual heritage, and the systematic work being carried out to further increase the creative potential of students and youth. Let's stop and reflect on scientific and philosophical thought.

Key words: youth, education, upbringing, culture, value, internet.

KIRISH (ВВЕДЕНИЕ / INTRODUCTION)

Talaba yoshlarni dunyoqarashini oshirishda ta'limda madaniy me'rosimizning ahamiyati madaniyat va ma'naviyat sohalari tarkibida til, udumlar, an'analar va boshqalar bo'lsa, ma'lum xalqning madaniyat tarixi doirasida me'ros qoldirish jarayoni yaxshi bo'ladi. Boshqa sohalarda esa texnika, fan, san'at kabi sohalardagi bir xalqqa tegishli me'ros boshqa xalqlarga ham tegishli mulkka hisoblanadi. Bugungi kunda tobora axborot ko'lamining kengayishida yoshlar ma'lumot iste'molchisi bo'lib, axborot ishlab chiqaruvchilardan qabul qiluvchidir. Dunyodagi barcha odamlar hayotining o'rtacha yarmini axborot texnologiyalari bilan aloqada yoki YouTube'ga video yuklash, Facebook va Twitter kabi ijtimoiy tarmoqlarda statuslar yozish va ularga javob berish, xat yozish va ularga javob berish orqali o'tkazadi. Bu esa axborotlashgan jamiyatda yoshlar milliy o'zligidan begonalashuvining oldini olish va milliy-ma'naviy xavfsizlikni ta'minlash muammolarini yuzaga keltirmoqda.

"Bu murakkab sharoitda yetti marta emas, yetmish marta o'lchab ish tutishimiz kerak. Tashqi siyosatimizni shunday tuzayapmizki, bizning yakkayu yagona muddaomiz - O'zbekiston manfaatini ta'minlash. Maqsadimiz-xalqimizni rozi qilish. Buning uchun imkoniyatlardan yanada samarali foydalanishimiz, jaydari qilib aytganda, borini asrab, yo'g'ini yaratib yashashimiz kerak",-dedi Sh.Mirziyoyev davlatimiz rahbari.[1] Yoshlarga oid ta'limning mazmuni va mohiyati jamiyatning moddiy va madaniy taraqqiyoti darajasi bilan belgilanadi. Ijtimoiy munosabatlarda umumiy ma'lumotga bo'lgan ehtiyoj, kishilarning kasbiy tayyorgarligiga, ta'lim haqidagi pedagogik g'oyalarga qarab kishilik jamiyati taraqqiyotining turli bosqichlarida ta'limning mohiyati, darajasi, metodi, tashkiliy shakil-shamoillari o'zgarib boradi.

Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishda 2030-yilgacha mo'ljallangan kun tartibida amalga oshirilishi kerak bo'lgan chora-tadbirlar rejasi ishlab chiqilgan bo'lib, u 17 ta barqaror taraqqiyot maqsadlari asosida iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik yo'nalishlardagi masalalarga echim topishga qaratilgan. Bu maqsadlar o'zaro chambarchas bog'liq bo'lib, rivojlanish yo'llari haqida ma'lumot beradi va uchta fundamental tamoyilga, ya'ni inson huquqlari, tenglik va barqarorlikka asoslanadi.[2] Ta'lim va tarbiya har qanday jamiyat va har qanday davlat hayotida hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Yoshlarimizni qadriyatlarimizga muvofiq voqelikdagi muayyan hodisalarning umum insoniy, ijtimoiy axloqiy, madaniy ma'naviy ahamiyatini ko'rsatish uchun qo'llashimiz zarur. Inson va insoniyat uchun ahamiyatli bo'lgan barcha narsalar, erkinlik, tinchlik, xotirjamlik, adolat, ijtimoiy tenglik, ma'rifat, haqiqat, yaxshilik, go'zallik, moddiy va ma'naviy boyliklar, an'ana, urf-odat va boshqalar qadriyat hisoblanadi. Ijtimoiy fanlarning qaysi sohasida qadriyatga doir

tadqiqot olib borilgan bo'lsa, bu tushunchaga shu jihatdan ta'rif berilgan. Yosh avlodning umuman, jamiyat a'zolarining ta'lim-tarbiyasi bilan yetarlicha shug'ullanmagan mamlakat turg'unlikda va moddiy, iqtisodiy inqirozga mahkum bo'ladi. Shuning uchun madaniy me'roslarimiz nafaqat ushbu yo'nalishlar doirasida barqaror rivojlanishga samarali ko'mak berishi, balki barqaror rivojlanishning negzi va zaminida yotuvchi tinchlik va xavfsizlikni ta'minlanishiga ham yordam berishini esda tutish lozim.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA (ЛИТЕРАТУРА И МЕТОДОЛОГИЯ / METHODS)

Talaba yoshlarni dunyoqarashini oshirishda ta'limda madaniy me'rosimizning ahamiyati va jamiyat, inson ijodiy kuch va qobiliyatlari tarixiy taraqqiyotining muayyan darajasida madaniyat bilan bog'liq xolda yotadi. Sharq Uyg'onish davri vakillari deganda bizning boy me'rosimizni yaratgan alloma bobolarimiz ko'z o'ngimizda gavdalanib bizga qoldirgan ilmiy me'rosi benihoyat ulkanligi bilan faxr tuyg'usini tuyamiz. Sharq Uyg'onish davri allomalari yunon olimlarining asarlarini 8-9 asrlarda arab tiliga tarjima qilishganlari bizga tarixdan malumdir. Aflotun, Arastuni Sharq faylasuflari ham o'z ustozlari deb hisoblagan, Plotin qarashlari esa Ibn al Arabiyga kuchli ta'sir etib, "Vahdatul vujud" falsafasiga turtki berdi. Abu Rayhon Beruniyning "Kitob attafhim li avoil sinoat attanjim" asari qo'lyozmasi 13-asrda yuksalishga shaylangan xalqlarning madaniyatini va o'zigacha yaratilgan bashariy yutuqlarni o'zlashtirib, yana yuksaklikka ko'tarilishi xaqida. Ayniqsa musulmon davlatlari bilan tutashgan chegara mamlakatlari: Qurdoba (Ispaniya), Kavkaz, Bolqon yarim orolida bu jarayon kuchli bo'lgan. Yevropaliklar Sharq olimlarining asarlarini lotin, ispan, yahudiy tillariga qilingan tarjimalar orqali yoxud bevosita arab tilida o'qib o'rganganlar. Bunga misol tariqasida "Ibn Sinoning "Tib qonunlari", "AshShifo", Forobiyning "Ilmlar tasnifi", Ahmad Farg'oniyning "Samo harakatlari va yulduzlar ilmining jami kitobi", Muxammad Muso Xorazmiyning "Aljabr val muqobila", Ibn Rushd, Abu Bakr Roziy asarlari tarjima qilinib, keyinchalik nashr etilgan".[4] Talaba yoshlarni dunyoqarashini oshirishda ta'limda madaniy me'rosimizning ahamiyati sifatida ta'limni madaniy me'roslarimiz obyektlarida olib borilsa maqsadga muvofiq bo'ladi.

Bu kabi ilmiy me'ros qoldirgan olim va allomalarimiz ro'yxatini uzoq davom ettirishimiz mumkin. Barcha ilmiy ma'naviy me'roslarimiz zamirida bitta haqiqat turadi. U ham bo'lsa ilmga intilish ma'rifat chirog'ini porloq qilib yoqishdir. Ulug' mutafakkir Alisher Navoiy bobomiz aytganidek, odamlarning dardiga darmon bo'lish-insoniylikning oliy namunasi ekanini unutmasligimiz, bunday ezgu ish uslubi bizning

nafaqat xizmat vazifamiz, vijdoniy burchimizga aylanishi kerak,-deya ta'kidladi davlatimiz rahbari Sh.Mirziyoev. [3]

Tahlil va natijalar (Analysis and results).

Sharq Uyg'onish davri deganda keng ko'lamli ilmiy me'ros ko'z o'ngimizda namoyon bo'ladi. Uyg'onish davrini tahlil qilar yekanmiz madrasa hamda maorif rivojlangan ulkan kutubxonalarda yuz minglab jildli kitoblar yig'ilgan bo'lib shular jumlasiga quydagilar kiradi: "Xazinat ulhikma", "Dor ululum"larda tolibi ilmlar, ustoz-shogirdlar suhbatlari bardavomligi, olimning obro'-e'tibori yuksak qadrlanishi xaqida yuksak qarashlar ifodalangan. Sharq Uyg'onish davri yutuqlaridan biri sifatida qaraladigan qadriyat sifatida G'arbiy Yevropadagi Uyg'onish davriga bevosita ta'sir etganligini biz doimo takidlaymiz. Chunki 12-14 asrlarda musulmon olami bilan Yevropa davlatlari orasida aloqalar kuchayganligi bizga tarixdan ma'lumdur. Sharq Uyg'onish davrida "O'sha paytda (13-16-a.) jaholat changalidagi Yevropaning ko'pgina qismida musulmonlar ilm charog'ini yoqdilar...; ispanlar yozuvi ham, shimoliy oramiy yozuvi ham Osiyodan olingan; shimoliy g'arbiy va sharqiy Yevropa madaniyati yunon-rumo-arab urug'idan unib chiqqandir (G. Gerder). Platon, Aristotel asarlari ham Yevropaga dastlab arabcha tarjima va talqinlari orqali kirib borgan. Sharqliklar G'arbni Aristotel falsafasi b-n yoritdilar (Gegel)".[5]

So'nggi yillarda ma'naviy-ma'rifiy sohalarida katta ishlar amalga oshirilmoqda. Ma'naviyat va ijodni qo'llab-quvvatlash maqsadli jamg'armasi hamda Ijtimoiy-ma'naviy tadqiqotlar instituti tashkil etildi. [6]

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations).

Madaniy me'ros-bu o'tmishdan qolgan qadriyatlar, g'oyalar, tajriba, bilimlar ularni o'zlashtirish ya'ni kishilarning ijodiy faoliyat usullari hamda uni tashkil qilishdir. Madaniy me'ros jarayoni o'ta muhim bo'lib, madaniyatning harakatdagi asosiy qonunlaridan biri hisoblanib bu jarayon insoniyatning o'tmishi, buguni va kelajagini bir butunlikda birlashtirib, odatiy tarzda tayyor yutuqlarga aylanadi. Erishilgan yutuqlardan kelib chiqib jamiyat o'z maqsadlarini amalga oshirishning qisqa yo'llarini tanlaydi. Bundan tashqari ma'naviy me'ros kishilarning saviyasini behad kengaytiradi, ular hayotini aqliy va hissiy jihatdan boyitadi, bilimning tunganmas manbasi bo'lib xizmat qiladi. Tobora axborotlashish avjiga chiqayotgan jamiyatda uyg'onish davri allomalari me'rosidan O'zbekistonda uyg'onish davri masalasi maxalliy materiallari umumlashtirgan xolda yetarli ishlanmagan. Markaziy Osiyo mintaqasidagi Uyg'onish xaqida gap borganda IX-XII asrlar avvalo xorijiy madaniyat va qaror topgan islomiy eti'qodga nisbatan rivojlangan va boyigan qadimiy madaniyati negizida milliy uyg'onish deb qaralmoqda. Diyorimiz uzoq yillik tarixida ko'p bosqin va talonchiliklarni ko'rdi, ularga qarshi ozodlik va mustaqillik uchun ko'plab

farzandlari kurash olib bordi. Xaqiqat shundaki, xar bir bosqindan so'ng milliy davlatchilik va madaniyat sekinlikda tiklandi. Mustaqillikka intilish g'oyasi va xarakati o'zga xalqlar tomonidan yaratilgan madaniyatlarni inkori emas balki shu yurtda yeshagan vatanparvar ajdodlarimiz g'oyasidir. Davlatchiligimiz tarixi va madaniyatida umuminsoniy axamiyatga molik jamiki madaniyat yutuqlari ijodiy uyg'unlashganidek, ayni paytda mintaqa madaniyati boshqa xalqlar madaniyatlariga samarali ta'sir ko'rsatdi va ularni boyitdi.

Xulosa qilib aytganda, ijtimoiy tarmoqlar zamonaviy yoshlarning sotsializatsiya jarayonlariga ta'sir ko'rsatadi va zamonaviy yoshlarning Internet makonida kiberijtimoiylashuvni belgilaydi. Bu jarayonlarning ikki jihati borligini unutmasligimiz kerak. Birinchi jihati shundaki, ijtimoiy tarmoqlar yoshlarga butun dunyo fuqarolari bilan muloqot qilish imkonini beradi. Ikkinchi jihat, ijtimoiy tarmoqlarning yoshlar hayotida keng tarqalishi ularning ijtimoiy institutlarida o'zgarishlarga olib keladi va ular o'ylab topgan qonun va qoidalar asosida virtual olamni yaratadi. Bu olam yoshlarni o'ziga qaram qilib hayotda ijtimoiylashishiga qiyinchiliklarni keltrib chiqaradi. Talaba yoshlarni dunyoqarashini oshirishda ta'limda madaniy me'rosimizning ahamiyati hamda tuman va shaharlarda ma'naviyat va ma'rifat maskanlari ishga tushiriladi.

Bu sohadagi islohotlarni kechiktirishga haqqimiz yo'q. Ta'limida poydevorni bugundan mustahkam qo'yishimiz kerak.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR / REFERENCES / ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА

1. <https://president.uz/oz/lists/view/5475>
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 20-oktyabrdagi "2030-yilgacha bo'lgan davrda barqaror rivojlanish sohasidagi milliy maqsad va vazifalarni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 841-sonli Qarori. <https://lex.uz/docs/4013356>.
3. <https://president.uz/uz/lists/view/5160>
4. <https://qomus.info/encyclopedia/cat-u/uygonish-davri-uz/>
5. <https://qomus.info/encyclopedia/cat-u/uygonish-davri-uz/>
6. <https://president.uz/oz/lists/view/6941>